



O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

Xalikova Xulkaroy

Qo'qon Universiteti Andijon filiali Pediatriya
yo'nalishi 25-02-guruh talabasi

Xazirov Boburjon

O'zbekistonning eng yangi tarixi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17230716>

Annotatsiya


O'zbekistonning eng yangi tarixi 1991-yilda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan boshlanadi. Bu davr mamlakat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida tub burilishlar davri bo'ldi. Eng avvalo, mustaqil davlat ramzlari – bayroq, gerb va madhiyaning qabul qilinishi, Konstitutsiyaning tasdiqlanishi milliy davlatchilikning asosini yaratdi. Iqtisodiy sohada bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish, milliy valyuta – so'mining muomalaga kiritilishi, qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim, fan va madaniyat sohalarida milliy qadriyatlarni tiklash, yosh avlodni zamonaviy bilim va kasb-hunarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratildi. 2016-yildan boshlab O'zbekiston taraqqiyotida yangi bosqichlari boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovich rahbarligida ochiqlik, oshkoralik va xalq bilan muloqot tamoyillari ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Harakatlar strategiyasi" hamda "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asosida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlar

O'zbekiston, eng yangi tarixi, Mustaqillik, Konstitutsiya, milliy ramzlar, bozor iqtisodiyoti, so'm, islohotlar, ta'lim, madaniyati, Yangi O'zbekiston, Harakatlar strategiyasi, Shavkat Mirziyoyev.

Аннотация

Новая история Узбекистана начинается с провозглашения государственной независимости в 1991 году. Этот период стал временем глубоких преобразований в политической, экономической, социальной и духовной сферах жизни страны. Прежде всего были утверждены государственные символы – флаг, герб и гимн, принята Конституция, что создало основу национальной государственности. В экономической сфере последовательно осуществлялся переход к рыночным отношениям, введена национальная валюта – сум, проведены важные реформы в сельском хозяйстве и промышленности. В области образования, науки и культуры особое внимание уделялось возрождению национальных ценностей и подготовке молодежи к современным профессиям. С 2016 года





в Узбекистане начался новый этап развития. Под руководством Президента Шавката Мирзиёева приоритетными направлениями стали открытость, гласность и диалог с народом. На основе «Стратегии действий» и «Стратегии развития Нового Узбекистана» реализуются широкомасштабные реформы

Ключевые слова

Узбекистан, новейшая история, независимость, Конституция, государственные символы, рыночная экономика, сум, реформы, образование, культура, Новый Узбекистан, Стратегия действий, Шавкат Мирзиёев.


Annotation

The modern history of Uzbekistan began with the declaration of state independence in 1991. This period marked a time of profound changes in the political, economic, social, and spiritual spheres of the country's life. First of all, state symbols – the flag, the emblem, and the anthem – were adopted, and the Constitution was approved, laying the foundation of national statehood. In the economic sphere, a gradual transition to market relations was carried out, the national currency – the soum – was introduced, and important reforms in agriculture and industry were implemented. In the fields of education, science, and culture, special attention was given to reviving national values and preparing the younger generation for modern professions. Since 2016, a new stage of development has begun in Uzbekistan. Under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, openness, transparency, and dialogue with the people have become priority directions. Broad reforms are being implemented based on the “Action Strategy” and the “Development Strategy of New Uzbekistan.”

Keywords

Uzbekistan, modern history, independence, Constitution, national symbols, market economy, soum, reforms, education, culture, New Uzbekistan, Action Strategy, Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston tarixi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu xalqning qadimiy ildizlari, boy madaniyati, ilm-fan va san'atdagi yutuqlari, davlatchilik tajribasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo tarixida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, 1991-yilda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi O'zbekiston hayotida yangi davrni boshlab berdi. Shu yildan boshlab mamlakat o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini tanladi, milliy davlatchilik asoslari tiklandi va dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallay boshladi. Mazkur davr tarixiy manbalarda “O'zbekistonning eng yangi tarixi” sifatida talqin





qilinadi. O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu milliy tiklanish, mustaqillikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik jamiyat qurish, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy taraqqiyot yo'lida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar davri hisoblanadi. Shu sababli mazkur davrni o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kun uchun ham katta dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston bugungi kunda yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yan davlat sifatida xalqaro maydonda tan olingan. Mamlakatda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, davlat ramzlari va Konstitutsiyaning qabul qilinishi, milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi, qishloq xo'jaligi va sanoatdagi o'zgarishlar, ta'lim va madaniyat sohasidagi yangilanishlar milliy davlatchilik tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ayniqsa, 2016-yildan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan "Harakatlar strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" mamlakatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bois mazkur davrni ilmiy tahlil qilish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va xolis baholash dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuning maqsadi va vazifalari

Mazkur ishning asosiy maqsadi – O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish, mustaqillikdan keyingi davrda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy islohotlarni tahlil qilish, ularning xalq hayotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shu maqsad asosida quyidagi vazifalar belgilandi

- Mustaqillikning e'lon qilinishi va milliy davlatchilik asoslarining shakllanishini o'rganish
- Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar, Konstitutsiya va davlat ramzlarining ahamiyatini tahlil qilish.
- Iqtisodiy sohada bozor munosabatlariga o'tish, milliy valyutaning muomalaga kiritilishi va asosiy islohotlarni yoritish.
- Ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi yangilanishlar, milliy qadriyatlarni tiklash jarayonini ko'rsatish.
- 2016-yildan keyingi islohotlar, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi va xalqaro maydondagi tashabbuslarni tahlil qilish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari respublika tarixshunosligida keng o'rganilgan. Bu borada ko'plab olimlar, jumladan, I. Karimov asarlarida mustaqillik davri islohotlarining nazariy asoslari bayon etilgan. Shuningdek, tarixchi olimlarning monografiyalari, maqolalari va darsliklari ushbu davrni





tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlari, davlat dasturlari va strategik hujjatlar mazkur davr tarixini chuqurroq o'rganish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish ilmiy jihatdan mamlakatning mustaqil taraqqiyot tajribasini tahlil qilishga yordam beradi. Amaliy jihatdan esa bu jarayon yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, tarixiy xotirani mustahkamlashga, zamonaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur mavzuni chuqur o'rganish tarix fanining rivojlanishiga va kelajak avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga muhim hissa qo'shadi.

Ishning tuzilishi

Mazkur ish kirish, asosiy boblar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, o'rganilganlik darajasi hamda ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi.

Xulosa

O'zbekistonning eng yangi tarixi mamlakat hayotida tub burilishlar davrini ifodalaydi. 1991-yilda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan milliy davlatchilik asoslari tiklandi, Konstitutsiya va davlat ramzlari qabul qilindi. Iqtisodiy sohada bozor munosabatlariga o'tish jarayoni boshlandi. Ta'lim, fan va madaniyat sohasida milliy qadriyatlarni tiklash, yosh avlodni zamonaviy bilim va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha muhim dasturlar amalga oshirildi. 2016-yildan boshlab mamlakat taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "Harakatlar strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asosida jamiyatning barcha jabhalarida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Ochiqlik, oshkoralik va xalq bilan muloqot tamoyillari davlat siyosatining bosh yo'nalishiga aylandi. Shunday qilib, O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu milliy tiklanish, mustaqil taraqqiyot, demokratik jamiyat qurish va xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lidagi jarayonlar tarixidir. Bu davr xalqimizning kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratish yo'lidagi mashaqqatli, ammo faxrli yo'lini o'zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.





4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. O‘zbekiston tarixi (eng yangi davr). Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019.
6. Hasanov B., Rajabov Q. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
7. Raxmonov S. Mustaqillik davri tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent: Adolat, turli yillar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005

